

“BAHOR KELDI SENI SO‘ROQLAB” MAVZUSIDA MA’NAViy-MA’RIFIY TADBIR  
O‘TKAZISH TAJRIBASIDAN

Achilova Zarina Saidovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi,  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.

Telefon raqami: +998905051709. [achilovazarina55@gmail.com](mailto:achilovazarina55@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14771679>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning tavallud ayyomi munosabati bilan adabiy-badiiy tadbirlarni o‘tkazish, she‘riy parchalar va videolavhalar, musiqali parchalarni ishlatish bo‘yicha ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilariga uslubiy yordam berish haqida ma‘lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** E‘tiqod, musiqali tanaffus, sadoqat va vafo, kimxob, parvo, hayot kitobi, Zulfiya nomli Davlat mukofoti, xalqaro mukofotlar.

FROM THE EXPERIENCE OF HOLDING A SPIRITUAL AND EDUCATIONAL  
EVENT ON THE THEME “SPRING HAS COME, ASKING YOU QUESTIONS”

**Abstract.** This article provides information on holding literary and artistic events on the occasion of the birthday of the People's Poet of Uzbekistan Zulfiya, providing methodological assistance to teachers of the native language and literature on the use of poetic fragments and videos, musical fragments.

**Keywords:** Belief, musical break, loyalty and fidelity, kimkhob, care, book of life, State Prize named after Zulfiya, international awards.

ИЗ ОПЫТА ПРОВЕДЕНИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОГО МЕРОПРИЯТИЯ  
НА ТЕМУ «ВЕСНА ПРИШЛА ТЕБЯ ДОПРОСИТЬ»

**Аннотация.** В статье дается информация о проведении литературно-художественных мероприятий, посвященных юбилею народного поэта Узбекистана Зульфийи, оказании методической помощи учителям родного языка и литературы по использованию поэтических фрагментов и видеоматериалов, музыкальных отрывков.

**Ключевые слова:** Вера, музыкальная интермедия, преданность и верность, кимхиоб, забота, книга жизни, Государственная премия имени Зульфийи, международные награды.

Ushbu tadbirni shoir Zulfiya tavalludi munosabati bilan “Nazm va navo” turkumidagi adabiy-badiiy kecha tarzida akademik litsey, umumta’lim o’rta maktablarda quyidagi tartibda o’tkazish maqsadga muvofiqdir.

### “Bahor valsi” musiqasi

**1-boshlovchi:** Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

**2-boshlovchi:** Assalomu alaykum, she’riyatga oshno qalblar!

Bugungi “Bahor keldi seni so’roqlab” nomli nazm va navo kechamiz O’zbekiston xalq shoirasi, Respublika Davlat mukofoti sovrindori, xalqaro «Nilufar» va “Javoharla’l Neru” mukofoti laureati, “Mehnat Qahramoni” davlat unvoni, «Do’stlik» ordeni sohibasi, Bolgariyaning «Kirill va Mefodiy» ordeniga sazovor bo’lgan Zulfiyaxonimning tavallud kuniga bag’ishlanadi.

**1-boshlovchi:** Hamon e’tiqodim – haqiqat, haqdir,

So’zlayman yuzimni tutib Ka’baga.

Yemira olmaydi o’tkinchi taqdir,

Osuda o’tadi ruhim abadga.

E’zozlar, ardog’lar uchun tashakkur,

Asli Siz oftobim, men ziyosiman.

Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,

Baxtim shul – o’zbekning Zulfiyasiman.

**2-boshlovchi.** O’zbek she’riyatining otashnafas shoiralaridan biri, inson ruhiyati dunyosining betakror kuychisi Zulfiya o’z she’rlari bilan bizni nafasatga, ezgulikka oshno etib, oppoq tong sari yetaklab, qalb harorati bilan isitib kelmoqda.

**1-boshlovchi.** Zulfiyaning ovozi - ona qalbini, ayol nazokatini, inson orzusini kuylagan otashin she’rlari faqat O’zbekistondagina emas, butun Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham kitobxonlar diqqatini jalb qildi.

**2-boshlovchi.** Zulfiya ijodi-millionlab kishilarga, muhabbat va sadoqatdan saboq bermoqda, sadoqat va vafo ramzi bo’lib yashamoqda. Kamalak yetti rangda yetmish xil jilolanib, barchani maftun qilganidek, Zulfiya tongning o’ziday rost va yorqin haqiqatga yo’g’rilgan poeziyasi bilan sadoqat va vafo tuyg’usini -insoniylikning, komillikning bosh mezoni darajasiga ko’targan.

**1-boshlovchi.** Zulfiya xalqimiz qalbida mangu yashashdek baxtga musharraf bo’lgan noyob iste’dod egasi edi.

U o'zining bor mehr-muhabbatini, ilhomini xalqiga, Vataniga bag'ishlagandi. Yurtimizda shoirni bilmagan, she'rlarini o'qib zavqlanmagan kishi bo'lmasa kerak.

**2-boshlovchi.** O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaxonim nomini eshitmagan, loaqal u yozgan she'rlarning bir satrini xirgoyi qilmagan yurtdoshimiz bo'lmasa kerak. Vafo va sadoqat timsoli bo'lmish shoiraning nomi shodlik va baxt kuychisi Hamid Olimjon nomi bilan chambarchas bog'liq. Har ikki buyuk qalb egasi uyg'onish fasli bahorni juda qadrlashgan. Har gal bahordan ilhom va jo'shqinlik olishgan.

**1-boshlovchi.** Biz bugungi she'riyat bazmimizni ham aynan har ikki buyuk shoirning sevimli fasli bahorning kirib kelishi, ular ijodi va nomining bahorday abadiy, doimiy yashnab turishiga bog'lab o'tkazishga ahd qildik.

**2-boshlovchi.** Kechada har ikki shoirning bahorga bag'ishlangan she'r-u qo'shiqlari yangraydi.

#### O'QUVCHILAR CHIQISHI:

Salqin saharlarda, bodom gulida,  
Binafsha labida, yerlarda bahor.  
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,  
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor...

Qancha sevar eding, bag'rim, bahorni,  
O'rik gullarining eding maftuni.  
Har uyg'ongan kurtak hayot bergan kabi  
Ko'zlaringga surtib o'parding uni.

Mana qimmatligim, yana bahor kelib,  
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.  
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,  
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.

Bahorga burkangan sen sevgan elda,  
Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast.  
O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot,  
Men ham hali sensiz olmadim nafas.

**1-boshlovchi.** Shoir she'rlarida butun qalbi bilan xalq baxt-saodatini kuylagan Hamid Olimjonning yorqin obrazi yaratilgan. U o'z ijodi va ovozida Hamid Olimjon barhayot ekanini komil ishonch bilan bayon etar ekan, shunday deydi:

**“Bahor” musiqasi fonida “O`rik gullaganda” she’ri asosida  
sahna ko`rinishi namoyish etiladi.**

**O`QUVCHILAR CHIQISHI:**

Hijroning qalbimda, sozing qo`limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam.  
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham.

Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o`tgan umrga achinmay qo`ydim.  
Tabassum o`rnida kuldim charaqlab.  
Suyish kerak bo`lsa - telbacha suydim.

Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.  
Meni og`ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo`shiq talab unda har saboq.

Men o`tgan umrga achinmay qo`ydim,  
Hech kimda ko`rmayin umrimga o`xshash:  
Suydim, erkalandim, ayrildim, kuydim,  
Izzat nima - bildim. Shu-da bir yashash!

**H.Olimjonning “Xayolimda” she’riga bastalangan qo`shiq ijro etiladi.**

**1-boshlovchi.** O`zbekiston xalq shoirasi, taniqli jamoat va davlat arbobi - Zulfiya xorijiy mamlakat taraqqiyparvar yozuvchilari va davlat arboblarning mehmoni sifatida juda ko`p mamlakatlarda bo`lgan edi.

**2-boshlovchi.** O`zbek-hind do`stligi, O`zbekiston Jamiyatining prezidenti sifatida o`zining butun ijodi va ijtimoiy faoliyati bilan tinchlik ishiga, xalqlarning do`stligi va birodarligi ishiga katta hissa qo`shib kelgan.

**1-boshlovchi.** U baxtli zamonamizni - Vatanimiz mustaqilligini ko`rishga muyassar bo`ldi, xalqimiz boshidan o`tgan dardu jafolar ortda qolganidan aytdi.

**O`QUVCHILAR CHIQISHI:**

Zulfiya haqidagi fikrlar

**1-o`quvchi.** Umlarcha davom etsin  
Vatan ufqida parvozing,

Zamon aksi sadosidek

Jaranglab tursin ovozing.

(Gʻafur Gʻulom)

**2-oʻquvchi.** “Shoira Zulfiyaning adabiyot olamimizdagi ovozi birinchi eshitganimda, birinchi sheʼrlarini oʻqiganimda, ilhomning tozaligi, hislarining nafisligi, sheʼrlarining samimiyligidan suyungan edim”. (Oybek)

**3-oʻquvchi.** “Zamondoshim, uzoq ijod yoʻlida hamfikir va hamkasbimiz Zulfiya haqida oʻylasam shunday fikr yodimdan kechadi. Zulfiyaning oddiy temirchi qizidan qahramon shoira darajasigacha bosib oʻtgan yoʻli - bu Sharq xotin-qizi, oʻzbek ayolining shonli yoʻlidir”. (Kamil Yashin)

**4-oʻquvchi.** “Zulfiyaning sheʼrlarini ona tilim - boshqird tiliga oʻgirarkanman, ulardan olgan zavq meni lol qoldirgan”. (Mustay Karim)

**5-oʻquvchi.** “Zulfiya hozirgi zamon oʻzbek poeziyasining eng maftunkor zarvaragʻidir”. (Chingiz Aytmatov)

## MUSIQALI TANAFFUS

**“Eng gullagan yoshlik chogʻimda” qoʻshigʻi oʻquvchi ijrosida yangraydi.**

**1-boshlovchi.** Zulfiyaning sheʼrlari turli tillarda jahon minbarlarida jaranglagan va jaranglaydi.

**Oʻquvchilar tomonidan Zulfiya sheʼrlari ingliz, nemis, rus, fransuz, tojik tillarida jaranglaydi.**

## MUSIQALI TANAFFUS

Zulfiyaning “Fontan oldida” nomli sheʼriga bastalangan qoʻshigʻi videolavhasi namoyish etiladi.

**2-boshlovchi.** Zulfiyaning gʻururi, sururi, butun iztirobi, dardlari, kuyunchi, suyunchi, osuda xayollari, dolgʻali tuygʻulari balqib yotgan betakror ijodiyoti xalqimiz mehnati, mhayoti, kelajagining ajralmas bir parchasi. Uning bedorligi, beoromligi, ilhomi, hijroni, oʻchmas muhabbati – oʻz xalqining yuragiga, tomir urishiga hamohang.

**1-boshlovchi.** Buyuk insonlarga, tarixda oʻzining oʻchmas izini qoldirgan ulugʻ siymolarga baho berish yosh avlod uchun biroz nomunosib. Ular oʻz davrining yuksak baholarini olib ulgurgan shaxslardir. Biroq ularning ijod yoʻlini, hayotining ibratli jihatlarini oʻrganish ertangi kun pillapoyalarini qurishda asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

**2-boshlovchi.** Ana shu o`rinda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining ta`sis etlishi katta ahamiyat kasb etadi. Har yili mukofotga munosib deb topilgan o`n ikki nafar qiz siymosida esa butun yoshlarga ishonch bildiriladi. Biz akademik litseyimizdagi matematika yo`nalishi bo`yicha xalqaro fan olimpiadasida kumush va bronza medalini qo`lga kiritib, Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo`lgan qizlarimiz: Diyora Salimova, Umida Jo`rayeva, Muhayyo Ahmadova, Maftuna Samatboyeva bilan faxrlanamiz.

**1-boshlovchi.** Bugungi “Bahor keldi seni so`roqlab” nomli kechamiz o`z nihoyasiga yetdi.

(Kechada “Muhabbat yaratgan mo`jiza” nomli videofilmdan lavhalar  
namoyish etildi)

#### REFERENCES

1. Zulfiya. Tanlangan asarlar (3 jildli), Toshkent, 1985.
2. Zulfiya. “Kuylarim sizga” (to`ldirilgan 2-nashri, 1965)
3. H. Olimjon. Tanlangan asarlar. Toshkent, 2019
4. Adabiyot darsligi 10-sinf, Toshkent, 2017